



## BO’LAJAK MUSIQA O’QITUVCHILARINING AKMEOLOGIK CHOLG’U IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Muallif:** Мирсолихова Хуршида <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** мустақил тадқиқотчи <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14409931>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada akmeologik yondoshuv asosida musiqa o’qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirishning metodik jihatlarini tahlil etilgan

**Kalit so’zlar:** akmeologik, yondoshuv, musiqa, o’qituvchi, kasbiy, mahorat, shakllantirish, metodik, jihatlar, tahlil.

Akmeologiya – bu inson va shaxsiyat rivojlanishining xususiyatlarini o’rganadigan, shuningdek bu jarayonda eng yuqori nuqtaga, cho’qqiga erishish yo’llarini qidiruvchi fan. Akmeologiya so’zi qadimiy yunoncha akme (“akme”) “cho’qqi”, logos – “ta’limot” ma’nolarini anglatadi. Dastlab, bu so’z 40 yoshda sodir bo’lgan ijodiy va aqliy rivojlanishning cho’qqisini tasvirlash uchun ishlatilgan bo’lsa, bugungi kunda psixologiyada bu atama insonning intellektual, psixologik hamda kasbiy rivojlanishidagi eng yuqori nuqtani anglatadi.

Yuqori samaradorlik bilan ishlaydigan va o’z faoliyati bilan tanlagan jabhasida katta natijalarga erishishni maqsad qilgano’sib kelayotgan yoshlarga sifatli ta’lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasida ekanligi fikrimizning dalilidir. Sir emas, har bir xalqning musiqa san’ati va madaniyatida xalq cholg’ulari ijrochiligi, uning asrlar davomida jamlangan ko’p qirrali boy merosini sohada ta’lim oluvchilar shuuriga, ijro malakasiga singdirish jiddiy ahamiyat kasb etadi. Ana shunday yondashuv asnosida paydo bo’layotgan, tobora ko’payib borayotgan kerak-nokerak, mentalitetimizga yot musiqiy qarashlar, yo’nalishlar farzandlarimizni chalg’itmasligi uchun xalqimizning boy madaniyati va san’ati, an’analaridan, musiqiy javohirlaridan bahramand etish, ijrochilik mahorati va an’analarini ta’lim tizimi yordamida asrab-avaylab yetkazish orqali ularda o’tkinchi xurujlardan himoyalash uquvi shakllantirilishi lozim. Bu borada oliy ta’limda tahsil olayotgan bo’lajak o’qituvchilarning vazifasi va o’rni juda katta. Dars jarayoni malakali olib borilishi uchun o’qituvchi oldiga nafaqat o’z cholg’usida ijro etish asoslarini o’rgatish, balki psixologiya, musiqiy psixologiya, sotsiologiya, anatomiya, estetika, fiziologiya fanlaridan fundamental bilimlarga ega bo’lish kabi talablarni ham qo’ymoqda.

O’quvchi bilan yakka tartibda dars o’tish - o’qituvchi uchun ijodiy topshiriqdir. Zamonaviy, ilmiy yutuqlardan, musiqa olamidagi yangiliklardan bexabar bo’lish va ularga tayanmasdan, darsning muvaffaqiyatli yechimini topish mushkul. Pedagogik

mahoratni o'stirish uchun o'qituvchi o'zi ustida tinmay ishlashi, izlanishi zarur. Professional o'qituvchi- har doim aktual hisoblangan. Sifatli ta'lim berish tizimi mavjudligi davlatning eng muhim ustunidir. O'qituvchining professionalligi esa uning kasbiy mahoratiga qarab aniqlanadi. Mahorat-o'z prinsiplariga ko'ra ishlaydigan, o'quvchilarini xurmat qiluvchi har bir o'qituvchining o'ziga xos o'qitish san'atidir. Mahorat uchun birinchi qadam - ijoddir. Mahoratli o'qituvchi o'quvchini eng avvalo unday olishi, maqsadga yo'naltirish, bilim va tajriba berishi, pedagogik texnikaga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchining mahorati qachon namoyon bo'ladi? Qachon-ki u ta'lim berayotgan o'quvchining ko'zlarida uchqunni yondira olsa, hayajonni uyg'ota olsa. Ta'lim berish jarayonida har-bir o'quvchining fiziologik rivojlanish darajasiga qarab qaysi texnologiyadan, uslubiyotdan foydalanish o'quvchi uchun manfaatli bo'lishini "bashorat" qila olishi kerak. Yanada obrazli tushuntirilsa u rassom, qo'shiqchi, arxitektor, doktor, qiziqchi bo'la olishi kerak. Faoliyati davomida ming bo'laklarga bo'lingan qismlardan (turli uslubiyot va texnologiyalar jamlanmasidan) kerakligini tanlab joy-joyiga qo'yib go'zal, bir butun tasvirni yig'ishi darkor. Musiqa o'qituvchisi bu – Usta. Sohasini mukammal biluvchi yuksak madaniyatli mutaxassis, izlovchi, innovatsion texnologiyalarni tahlil qila oladigan va ular orasidan kerakligini ilg'ab olib faoliyatida qo'llaydigan, uning qanday natija berishini oldindan ko'ra biluvchi ijodkordir. Musiqa o'qituvchisining ijodi bu -uning ijrochilik ko'nikmalari bo'lib, u ko'p qirrali jarayondir. U o'z ichiga texnik, fiziologik, psixologik, badiiy-estetik komponentlarni oladi. O'qituvchi va ijrochi. Bu so'zlar ikkita insonga beriladigan ta'rif. Bu ikki so'zni birga ishlatilsa o'qituvchi ijrochi hosil bo'ladi. Bu kasb egasiga ikki baravar vazifa yuklatiladi. U ham o'qitishi lozim, ham ijrochi bo'lishi darkor. Xo'sh bu murakkab vazifasini qanday qilib bir-biri bilan uyg'unlashtirish mumkun?

O'qituvchi o'quvchini tovushlar olamiga olib kiruvchi inson. Nazariy jihatdan yuqori salohiyatga, amaliyotda esa yaxshi ijrochi bo'lishi talab etiladi. Ta'lim berayotgan cholg'usida o'quvchiga ijro etiladigan asarni chalib bera olishi kerak. Dars jarayonida o'quvchi bilan ijro dasturini mukammal o'rganish uchun talab etiladigan barcha bosqichlarni birga ishlashi kerak.

Ta'limida o'quvchini ta'limga qiziqtirishning ikki turi mavjud bo'lib, bu tashqi va ichki motivatsiyadir. Ko'p hollarda, rag'batlantirish sifatida tashqi motivatsiya turi ishlatiladi. Tashqi motivatsiyaga yana kompyuter texnologiyalari, ko'rgazmali qurollarlardan foydalanish kabi usullar joriy etilishi zamon talabidir. Tashqi motivatsiyaning eng samarali turi o'quvchilar orasida sog'lom raqobat ruhini paydo qilishni tarbiyalashdir. Ta'lim dargohlarida bo'lim o'quvchilari orasida kichik tanlovlar, konsertlar, ijodiy uchrashuvlar o'tkazish orqali ular orasida o'zaro musobaqalashishga, ijro mahorati yuqori ekanligini isbotlash, o'zi ustida mustaqil ishlashga intilishlarini kuchaytiradi. Bu tizimning nechog'li keng, adolatli, shaffof bo'lishi o'quvchilarda ijro imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanib, omad va muvaffaqiyatga erishish hissini shakllantiradi, iqtidori sust bo'lgan o'quvchilar o'z ustlarida ishlab, mahoratlarini oshirish harakatlari faollashadi. Ko'pchilik tan oladigan "ishontirish" usuli ham zamonaviy o'quvchini qiziqtirishda biz istagan natijani bermasligi mumkin. Shu bois, o'quvchi bilan muvaffaqiyatga erishishga eltuvchi maqsadli reja tuzib, uni bajarish yo'llarini ko'rsatish lozim. O'quvchiga ichki rag'bat hissi va o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini singdirish

uchun uning yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklariga bee'tibor bo'lmaslik kerak. Qaysi harakat va omillar bunga sabab bo'lganini hamkorlikda tahlil qilish, ularni bartaraf etish yo'llarini topishga unday olish, ko'maklashish muhim va zarur. Dars jarayonida musiqa asar ustida ishlash bir necha bosqichlarga bo'lingan. Bular: tanishuv, yodlash, ijroni konsert darajasiga olib chiqish va sahnada ijro etish. Har-bosqichning o'z vazifasi va natijasi bor. Asar bilan tanishuv chog'ida notanish asarga qiziqish, mavhumlik bo'lsa, asarni yod olish jarayonida aktivlik, qoniqish, o'ylanish ustunroq bo'ladi. Tayyor asarni sahnaga olib chiqish paytida esa o'quvchi g'alaba nashidasi, asarni tayyorlash bosqichlarida qilgan mehnati natijasini eshitib o'zidan g'ururlanish, quvonch hisslarini tuyadi. O'ziga o'zi ishonchi oshib boradi va uni shaxs sifatida shakllanishida yordam beradi. Konsertga tayyorgarlik jarayoniga o'qituvchi ko'p ahamiyat berishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- Mirzaeva N.A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2008.  
Omonnulaeva D. Estrada xonandaligi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2007.  
To'raev Yu., Amanullaeva D. Voprosq metodiki prepodavaniyae stradnogopeniya. Uslubiy o'quv qo'llanma.T., 2004

